



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 48 (1647), 2026-yil 12-mart, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



KIMYO SANOATIDA “MAQSAD – HARAKAT – NATIJA” TAMOYILI EKSPORT SALOHİYATINI KENGAYTIRISH GAROVI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 11-mart kuni kimyo sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Tanqidiy ruhda o‘tgan tadbirda tarmoqni “maqsad — harakat — natija” tamoyiliga asoslangan yangi strategik rejalashtirish va rivojlantirish tizimi asosida isloh qilish zarurligi ta’kidlandi. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish va eksport salohiyatini kengaytirish bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlarni belgilash topshirildi.

Jumladan, joriy yilda tarmoq mahsulotlari eksportini 720 million dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirilgan hosil hajmlarini ta’minlash uchun azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarishni 1 million 120 ming tonnaga, fosforli o‘g‘itlarni 135 ming tonnaga, kaliyli o‘g‘itlarni esa 222 ming tonnaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi.

Qayd etilganidek, tarmoq va hududlar tomonidan joriy yilda 9,5 milliard dollarlik 133 ta loyihani amalga oshirish doirasida 2,5 milliard dollar investitsiya jalb qilinishi rejalashtirilgan. Jumladan, kimyo sanoati korxonalari va hududlarda 24 ta strategik loyiha doirasida 1,3 milliard dollar investitsiyalarni o‘zlashtirib, 7 ta yangi ishlab chiqarish quvvatini ishga tushirish vazifasi belgilangan.

Shu bilan birga, Qo‘ng‘irot soda zavodida ishlab chiqarishni kengaytirish, “Samarqandkimyo” korxonasida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, Dehqonobod kaliy zavodi quvvatlarini oshirish bo‘yicha loyihalarini amalga oshirish jarayoni tanqidiy ko‘rib

chiqildi. Muddatlarning asossiz cho‘zilayotgani qayd etildi. Mutasaddilarga investorlar bilan birgalikda mazkur loyihalarni jadallashtirib, qisqa muddatlarda yakunlashni ta’minlash topshirildi.

“Ammofos-Maksam” korxonasi faoliyati davomida to‘plangan fosfogips sanoat chiqindilarini qayta ishlash masalasiga ham e’tibor qaratildi. Ushbu chiqindidan qo‘shimcha mahsulotlar, jumladan, sulfat kislotasi ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, kimyo sanoatini strategik rivojlantirish uchun zamonaviy ilmiy va texnologik infratuzilmani shakllantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Xususan, Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda kimyo-texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish rejalashtirilgani ma’lum qilindi. Mazkur markaz gaz va ko‘mir kimyosi, chuqur kimyoviy tahlil, sorbentlar, katalizatorlar, nano va kompozit materiallar kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishga ixtisoslashadi va bu borada Markaziy Osiyodagi yagona ilmiy-tadqiqot instituti bo‘ladi.

Taqdimotda erituvchi moddalar, quruq sian tuzlari, kaustik soda, silikon, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni tashkil etish, “Farg‘onaazot”da ammiak, karbamid va ammiakli selitra quvvatlarini modernizatsiya qilish, “Navoiyazot”da g‘ovaksimon selitra, Toshkent viloyatida maishiy kimyo vositalari, Birinchi

rezinotexnika zavodida yangi turdagi shinalar ishlab chiqarish loyihalarining borishi haqida ham ma’lumot berildi.

Shu bilan birga, “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida loyihalarining boshqarish samaradorligini oshirish rejalari ko‘rib chiqildi.

Jumladan, jamiyat va uning tizimidagi korxonalarda ERP tizimi joriy qilinib, 21 ta vazirlik va idoralar hamda xarid operatorlari bilan integratsiya qilindi, 16 ta axborot tizimi yagona raqamli platformaga birlashtirildi. Moliyaviy holatni tahlil qilish va prognozlash, mineral o‘g‘itga ehtiyojni bashorat qilish jarayonlariga bosqichma-bosqich sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgan. Shuningdek, mineral o‘g‘itlarning korxonadan fermegacha harakatidagi barcha jarayonlarni raqamli nazorat bilan qamrab olish ko‘zda tutilgan.

Hisob palatasi bilan birgalikda energiya resurslarini tejash, xomashyo xarajatlarini qisqartirish va raqamlashtirish chora-tadbirlari orqali kimyo sanoatida mahsulot tannarxini 10-15 foizgacha pasaytirish vazifasi qo‘yildi.

Yakunda davlatimiz rahbari kimyo sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish, muammoli masalalarni tezkor hal qilish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini belgilangan muddatlarda ishga tushirish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA

LOYIHALAR EKSPERTIZASIDA SIFAT VA TEZKORLIKNI OSHIRISH INVESTITSIYA MUHITI YAXSHILANISHI OMILI

Prezident Shavkat Mirziyoyev loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Joriy yilda mamlakatimiz hududlari va iqtisodiyot tarmoqlariga 50 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilish, ijtimoiy va infratuzilma obyektlari qurilishiga 24 trillion so‘m byudjet mablag‘larini yo‘naltirish, shuningdek, davlat xaridlari doirasida 300 trillion so‘mdan ziyod tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish rejalashtirilgan. Bunday katta hajmdagi loyihalarini amalga oshirishda ularni ekspertizadan o‘tkazish tizimining tezkor va sifatlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, amaldagi tartib mazkur talablarga to‘liq javob bermayotgani, tadbirkor va investorlarning jiddiy e’tirozlariga sabab bo‘layotgani qayd etildi. Jumladan, o‘tgan yili ekspertizaga kelib tushgan 7 ming 750 ta hujjatning bir qismi uzoq muddatlarda ko‘rib chiqilgan. Ayrim hollarda loyihalar ahamiyati katta bo‘lmagan kamchiliklar sabab bir necha marta qayta ishlashga yuborilgan.

Shu bois, Prezident farmoni bilan Loyihalar va import shartnomalarini kompleks ekspertiza qilish markazi yangi tuzilgan Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligiga o‘tkazildi va uning faoliyatini transformatsiya qilish vazifalari belgilab berildi.

Taqdimotda sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Markaz faoliyati raqamlashmagani va xavf-tahill yondashuvining yo‘qligi uchun bitta xodimga

to‘g‘ri keladigan operatsion yuklama ortib ketgani qayd etildi. Markazda 130 nafar xodim ishlasha-da, xavfi past va strategik ahamiyatli loyihalar bir-biridan ajratilmagani uchun har bir xodimga ikki kunda o‘rtacha bitta loyiha to‘g‘ri kelmoqda.

Ekspertizaga kelib tushayotgan hujjatlarning katta qismi qiymati nisbatan kichik bo‘lgan loyihalardan iborat. Shuningdek, ko‘plab hujjatlar avval ko‘rilgan loyihalarga o‘xshash bo‘lsa ham, ular qaytadan to‘liq tartibda ko‘rib chiqilmoqda. Bu esa ortiqcha vaqt va resurs sarfiga sabab bo‘layotgani qayd etildi.

Taqdimotda markaz faoliyatiga ilg‘or tajriba va amaliyotlarni joriy qilish taklif qilindi.

Xususan, loyihalarini ko‘rib chiqishda xavf darajasi va qiymatiga qarab, tabaqalashtirilgan tartibni joriy etish taklifi bildirildi. Unga ko‘ra, loyihaoldi hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazishda texnik topshiriqlar ko‘rib chiqilmaydi, faqat 15 million dollardan yuqori qiymatdagi korporativ va byudjet loyihalari ko‘rib chiqiladi.

Yirik va megaloyihalarni parallel ekspertizadan o‘tkazish, avvalgilarga o‘xshash loyiha kelib tushganda, tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqish, jismonan va ma’nau eskirgan uskunalarni sodalashtirilgan tartibda ekspertizadan o‘tkazish, benchmarking usulini qo‘llash tashabbuslari ilgari surildi. Bu ekspertiza jarayonini maqbulashtirib, markazning asosiy e’tiborini strategik ahamiyatga ega yirik investitsiya loyihalariga qaratish imkonini beradi.

Taqdimotda ekspertiza jarayoni ishtirokchilari uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish masalalari ham ko‘rib chiqildi. Jumladan, loyihalar bo‘yicha birinchi bosqichdagi ijobiy xulosa olinsa yoki loyiha bo‘yicha bildirilgan e’tirozlar muddatidan oldin bartaraf etilsa, buyurtmachilarni rag‘batlantirish, ekspertiza jarayonlarini tezlashtirish va chegirmalar berish kabi choralar taklif qilindi.

Markaz faoliyatini raqamlashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Buning uchun soliq va bojxona organlari, milliy statistika tizimi, ekologiya va iqlimga oid ma’lumotlar bazalari, shuningdek, qurilish resurslari milliy klassifikatori hamda davlat xaridlari elektron tizimlari bilan integratsiya qilingan yagona axborot platformasi yaratiladi. Ushbu platforma orqali loyihalarga oid hujjatlar onlayn shakllantirilishi, tovar va xizmatlarning narxlari hamda texnik ko‘rsatkichlari sun‘iy intellekt yordamida tahlil qilinishi belgilanmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihalar ekspertizasi investitsiya muhitining muhim bo‘g‘ini ekanini ta’kidlab, mazkur sohada ortiqcha byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, jarayonlarni raqamlashtirish, sifat va tezkorlikni oshirish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA



YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY DRAYVERI

“Eh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...”

Shu kunlarda qaysi davraga kirsangiz, davlatimiz rahbarining yaqinda yoshlar bilan muloqotida yangragan chaqiriqlar va yangi tashabbuslar muhokamasiga duch kelasiz. Bugunning yoshlariga har tomonlama havas qilgulik. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati ko‘lami juda keng. Jamiyatimizdagi hech bir soha yoki tarmoq, hech bir yigit-qiz bu islohotlardan chetda emas. Yoshlar uchun ochilayotgan yangi imkoniyatlarni eshitib, ko‘rib, beixtiyor shoir yozganidek, “Eh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi...”, deb yuborasiz!

Kuni kecha sobiq hamkasbimni uchratib qoldim. U bilan 2000-yillarning boshida siyosiy partiyaning yoshlar tuzilmasida birga ishlaganmiz. O‘sha davrlarni esladik. Bugun bilan qiyoslab, hozirgi yoshlar yetakchilariga rosmana havasimiz keldi.

Esimda: o‘shanda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha qator takliflar tayyorlandi. Ulardan biri yoshlarga oid siyosatni muvofiqlashtiruvchi yagona davlat organini tashkil etish g‘oyasi edi. Shu taklifni bir davra subhatida bildirganimizda ko‘p malomatga qolganmiz. Ko‘pchilik



Buyuk o‘zbek yo‘li



ekspertlar fikrimizni qo‘llab-quvvatlamagan, aksincha, tanqid qilgan. Gazetalaridan birida “Ijtimoiy harakat: u qanday bo‘lishi kerak?” sarlavhali maqolam e’lon qilinishida o‘sha

paytdagi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati markaziy kengashiga chaqirib, jiddiy muhokama qilishgan. Harakat faolligini oshirish bo‘yicha bildirgan takliflarim

uchun dakki eshitganman. “Bizda hammasi zo‘r. Takliflaringizga muhtoj emasmiz”, deyishgan.

Davomi 3-betda



DEHQONCHILIK ILMI: QISHLOQ XO‘JALIGIDA YANGI BOSQICH SARI

Bu yil qor har yilgidan mo‘l yog‘di. Qishning izg‘irinli kunlarida yoqqan qor erta bahordan kech kuzgacha dalada mehnat qiladigan dehqon uchun ham, dasht oralab chorvasini o‘tlatib yurgan cho‘pon uchun ham xushxabar bo‘ldi. Chunki yer suvsiz qolsa — hosil so‘nadi, yaylov suv ko‘rmasa — chorva ozadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, keksalar bu yil ko‘klamda yomg‘ir mo‘l bo‘lishini so‘rab, duoga qo‘l ochdi. Axir o‘tgan yili qurg‘oqchilikdan tap-taqir bo‘lib ketgan yaylovlar yana o‘t-o‘lan bilan qoplanib, dasht yana jonlanishini hamma kutib turibdi.

Davomi 4-betda



Nuqtayi nazar

2026-2030: TARAQQIYOT STRATEGIYALARI VA YUKSALISH DASTURLARI BAXTLI HAYOTIMIZ YO‘L XARITASI

“Jonajon Vatanimiz bugun yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar asosida yashab, mehnat qilayotgan, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar diyoriga aylanmoqda. Hammamizga ayonki, Mirzo Ulug‘bek bobomiz bundanolti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini yaratishimiz lozim”. Ushbu dolzarb chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga taqdim etgan navbatdagi Murojaatnomasida yangradi.



Yer — xazina, suv — gavhar

QALBLARGA ISHONCH BERGAN O‘ZGARISHLAR

Prezidentimiz navbatdagi Murojaatnomasida “Dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois, islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik”, dedi. Shuningdek, mazkur sohani rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda eski infratuzilmani yangilash bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, 2026-yilda 1300 kilometr uzunlikdagi yirik magistral kanallar beton bilan qoplanishi, shu orqali yiliga qo‘shimcha 500 million kub metr suv iqtisod qilinishi ta’kidlandi. Kanallarni betonlash suvni tejab, sug‘orish tizimining barqaror ishlashini ham ta’minlaydi.

Davomi 4-betda



2026-2030: TARAQQIYOT STRATEGIYALARI VA YUKSALISH DASTURLARI BAXTLI HAYOTIMIZ YO'L XARITASI



Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori,
akademik

Boshlanishi 1-betda

Ayni hujjatlar loyiholari joriy yilning 23-yanvar-1-fevral kunlari ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng tarqib qilingani ularni maromiga yetkazishda jamoatchilik fikrini hisobga olish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Davlat dasturi loyihasi bilan internetda 5 milliondan ziyod foydalanuvchi tanishib, 22 mingdan ziyod fikr-mulohaza va taklif bildirilgani ham buni yaqqol tasdiqlaydi.

Oliy o'quv yurtlari va davlat idoralarida muhokama tadbirlari o'tkazish, shuningdek, xorijdagi vatandoshlar bilan muloqotlar asosida loyihalar yuzasidan qator qo'shimcha tashabbuslar bildirildi. Natijada keng jamoatchilikdan tushgan 1000 ga yaqin taklif saralab olinib, davlat dasturiga kiritilgani uning yanada xalqchilligini ta'minladi.

Taraqqiyot strategiyalari va yuksalish dasturlari loyihalariga Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham, bir tomondan, jamoaviy asosda takliflarini taqdim etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xodimlarimiz alohida taklif-tavsiyalarini bildirdi. Binobarin, ayni hujjatlarimiz tasdiqlangan matnida Milliy markaz takliflari ham aks etgani bizga cheksiz quvonch hamda faxrifiyor baxsh etdi.

Keyingi to'g'ri yilda yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyalari va yuksalish dasturlarini ishlab chiqish, qabul qilish hamda ijro etish

Islohotlar dasturlari va davlat dasturi bir-biridan farqli jihatlariga ega. Joriy yil 16-fevral kuni Prezidentimizga eng ustuvor islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2026-yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi loyiholari yuzasidan berilgan axborotda masalaning ushbu jihatiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.



Nuqtayi nazar



borasida ibratli tajriba to'planib, muayyan maqbul amaliyot shakllandi. Bu boradagi yangi hujjatlar turkumi sinovdan o'tgan milliy amaliyot va ilg'or xorijiy tajriba asosida mutlaqo yangi yondashuvlar negizida ishlab chiqildi.

Islohotlar dasturlari va davlat dasturi bir-biridan farqli jihatlariga ega. Joriy yil 16-fevral kuni Prezidentimizga eng ustuvor islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2026-yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi loyiholari yuzasidan berilgan axborotda masalaning ushbu jihatiga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Islohotlar dasturlarining to'g'ridan to'g'ri amal qilish mexanizmi mavjud va ular ayrim tashabbuslar bo'yicha alohida hujjat qabul qilishni talab etmaydi. Har bir islohotlar dasturining ijrosi uchun shaxsan javobgar bo'lgan mas'ul rahbar va muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti aniq belgilandi.

O'z navbatida "O'zbekiston — 2030" strategiyasini Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida mazkur strategiyaning 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkichlari ijrosi tashkil etiladi. Dastur bilan 337 ta banddan iborat amaliy chora-tadbirlar rejasini tasdiqlandi. Joriy yilda sohalar kesimida eng muhim 59 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi va eng muhim strategik islohotlarni nazarda tutuvchi 12 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqildi.

Xususan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida 2026-yil davomida ishlab chiqiladigan strategik rejalashtirish hujjatlar loyihalarini ro'yxatining 4-bandida "Inson huquqlari — 2030" strategiyasini ishlab chiqish belgilangan. Mazkur band ijrosi uchun asosiy mas'ul Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz hisoblanadi.

Dasturda ko'zda tutilgan "Inson huquqlari — 2030" strategiyasi, ta'bir joiz bo'lsa, yangi O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha ikkinchi milliy strategiyasi bo'ladi. 2020-yilda qabul qilingan va ijrosi yakuniga yetgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi bu sohadagi ilk hujjatdir.

Vena deklaratsiyasi va Inson huquqlari bo'yicha harakatlar dasturi har bir davlatga inson huquqlari bo'yicha milliy harakatlar rejalarini qabul qilishni tavsiya etgan. Bugungi kunda dunyoning 80 mamlakatida inson huquqlari sohasida 150 dan ortiq milliy reja (strategiya) qabul qilingan bo'lib, amal qilish muddati qisqa,

o'rta yoki uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ushbu hujjatlar turli darajalarda: prezidentlar, parlamentlar, hukumatlar tomonidan tasdiqlangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlariining bu boradagi tajribasi e'tiborga loyiq. Markaziy Osiyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida "Davlat inson huquqlarini hurmat qiladi va ta'minlaydi" tamoyili aniq belgilab qo'yilgan. Qozog'istonda 2023-yilda Prezident tomonidan tasdiqlangan Inson huquqlari va qonun ustuvorligi sohasidagi uchinchi harakatlar rejasiga amalga oshirilmog'ga. Qirg'iziston hukumati 2022-2024-yillar uchun Inson huquqlari bo'yicha harakatlar rejasini qabul qildi va amalga oshirdi. Tojikiston hukumati 2023-yilda Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani qabul qildi. Turkmaniston Prezidenti tomonidan 2021-2025-yillarga mo'ljallangan Inson huquqlari bo'yicha milliy harakatlar rejasini tasdiqlandi.

Ayni vaqtda mamlakatimizda 2026-yilgi davlat dasturi doirasida "Inson huquqlari — 2030" strategiyasi loyihadini ishlab chiqish jarayonlari jadal bormog'ga. Inson huquqlari bo'yicha ikkinchi milliy strategiya loyihadini tayyorlashda ilg'or xalqaro tajriba, O'zbekiston Respublikasining

inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlari, shuningdek, o'tgan davr mobaynida shakllangan milliy amaliyot inobatga olinadi. Hujjatda O'zbekistonning milliy ma'ruzalarini ko'rib chiqish doirasida taqdim etilgan BMTning inson huquqlari bo'yicha organlari tavsiyalari ham o'z aksini topishiga aminmiz.

Bundan tashqari, farmon bilan tasdiqlangan davlat dasturi bo'yicha amaliy tadbirlar rejasida Inson huquqlari bo'yicha V Samarqand forumini o'tkazish ham ko'zda tutildi. Forumni o'tkazish bilan bog'liq asosiy mas'uliyat Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz zimmasiga yuklangan.

Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi 2018-yildan boshlab an'anaviy tarzda har ikki yilda tashkiliy jihatdan yuqori saviyada o'tkazib kelinmog'ga. Forumning tashkilotchilari Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Tashqi ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek, Samarqand viloyati hokimligi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 9-oktabrda "Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi konsepsiyasi va inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumini o'tkazish reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror qabul qilingan. Bu hujjat O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni ijrosi doirasida ishlab chiqilgan.

Samarqand forumining asosiy vazifalariga, xususan:

— inson huquqlarini himoya qilish sohasida tajriba almashish;

— O'zbekistonning inson huquqlari sohasida erishgan yutuqlari va tashabbuslarini muhokama qilish, mamlakatning xalqaro obro'-e'tiborini mustahkamlash;

— xalqaro hamjamiyatning inson huquqlariga rioya etilishida sa'y-harakat va imkoniyatlarni birlashtirish;

— ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar huquqlari bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarini kiradi.

Navbatdagi Samarqand forumi BMTning 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan ikkita asosiy hujjati — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 60 yilligiga, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 30 yilligiga bag'ishlanishi ko'zda tutilmog'ga.

Bunday muhim milliy va xalqaro sanalar munosib nishonlanadigan joriy yilda Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumining yuksal saviyada o'tkazilishi el-yurtimiz hayotida katta ahamiyat kasb etishiga shubha yo'q.

yo'llar bo'yicha amaliy ishlar esa 1-iyuldan kechiktirmay boshlanishi, yana 1200 kilometr yo'l 2030-yilgacha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qayta qurilishi belgilangan.

Shu yil 5-mart kuni transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan yirik loyihalar doirasida bajarilayotgan ishlar yuzasidan o'tkazilgan taqdimotda Toshkent — Samarqand yo'nalishida yangi zamonaviy avtomagistral qurish loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu yo'lining umumiy uzunligi 282 kilometr. Shundan 140 kilometrli uchastkalarda tuproqni mustahkamlash ishlari bajariladi. Loyiha doirasida 12 ta transport yechimi, 91 ta ko'priklar va 16 ta yo'l o'tkazgich qurilishi ko'zda tutilgan. Besh yil davomida qurilish rejalashtirilayotgan mazkur yo'l avtomobil yo'llarining eng yuqori texnik va xavfsizlik standartlariga javob beradigan magistral bo'ladi.

Shuningdek, Toshkent — Angren — Qamchiq dovoni yo'nalishida 171 kilometrli muqobil avtomobil yo'li barpo etish loyihasi ham amalga oshiriladi.

— Taqdimotda Prezidentimizga mamlakatimizda qurilayotgan pulli yo'llar to'g'risida ma'lumot berildi, — deydi Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi Jamshid Tursunov. — Joriy yilda davlat-xususiy sheriklik asosida to'rtta pulli yo'l qurilishi belgilangan. Bu anchadan buyon muhokamalar markazida bo'lib kelayotgan Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon, Toshkent — Choro'v va Urganch — Xiva avtomobil yo'llaridir. Davlatimiz rahbariga mazkur yo'llar bo'yicha ayni paytdagi amaliy jarayonlar taqdimot qilindi. Xususan, Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon avtomobil yo'llarining tender jarayoni tugab, pudratchi tashkilotlar bilan amaliy ishlar boshlangan. Toshkent — Choro'v yo'li esa kelishuvimizga ko'ra, shu yil boshlanadi. Urganch — Xiva yo'nalishida qurilishi boshlangan ilk pulli avtomobil yo'li joriy yilda foydalanishga topshiriladi.

Shu bilan birga, taqdimotda Toshkentning yangi xalqaro aeroportini qurish loyihasing asosiy parametrlari ko'rib chiqildi. Birinchi bosqichda 208,4 ming kvadrat metrli yo'lovchi terminali, uzunligi 4 kilometrdan bo'lgan ikkita uchish-qo'nish yo'lagini barpo etish rejalashtirilgan.

Mazkur yo'llarning nihoyatda muhimligini hisobga olgan holda avtomagistralarni hisoblashda zamonaviy transport muhandisligi yechimlaridan foydalanish, intellektual boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish, harakat xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bugunning gapi

TADBIRKORLIK — BARQAROR JAMIYAT ASOSI



Sherzod ZOKIROV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti bosh ilmiy xodimi

Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili sifatida alohida ta'kidlangan. Xususan, 2026-yilda asosiy soliq stavkalari o'zgarishsiz qoldirilishi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun 140 trillion so'm resurs ajratilishi, "mahallada sanoat va xizmat" dasturlari orqali minglab yangi ish o'rni yaratilishi biznes muhitini yanada barqaror va ishonchli qilishga qaratilgan muhim qadamlardir.

Bugun mamlakatimizda 1 milliondan ziyod yakkalarga tadbirkorlik va kichik biznes subyekti faoliyat yuritilmog'ga. Yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ziyodi, xususiyl sektoridagi bandlikning qariyb 80 foizi aynan shu qatlam hissasiga to'g'ri kelmog'ga. Ushbu raqamlarning o'ziyoq tadbirkorlik iqtisodiyotimiz poydevoriga aylanganini yaqqol namoyon etadi.

2017-yildan boshlab tadbirkorlik faoliyatiga davlat idoralarining asosiy aralashuvlarini cheklash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, biznes ombudsman instituti tashkil etildi. 2024-yilning o'zida ushbu idora tomonidan tadbirkorlikka noqonuniy aralashuv bo'yicha 8898 ta holat aniqlangani himoya mexanizmi amalda ishlayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, korxona ochish jarayoni to'liq elektronlashtirilib, 30 daqiqa ichida ro'yxatdan o'tish imkoniyati yaratildi. 2023-yildan boshlab kichik biznesga yangi majburiyatlarni yuklovchi normativ-hujjatlar qabul qilishga moratoriy kiritildi. Prezidentimizning 2024-yil 14 noyabrda "Tadbirkorlar huquqlari va



qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida tekshiruvlarda "xavfni tahlil qilish" elektron tizimi joriy etildi. Endi tekshiruvlar faqat xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi, past xavfli subyektlar umuman tekshirilmaydi.

Ushbu islohotlar xalqaro miqyosda ham yuksal e'tirof etilmog'ga. O'zbekistonda biznes muhitini yaxshilash va huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi ishlar nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ijobiy baholanganog'ga.

Xususan, 2025-yil sentyabr oyida Jahon banki guruhii prezidenti Ajay Banga yangi O'zbekistondagi keng ko'lami iqtisodiy va huquqiy islohotlarni yuqori baholab, mamlakatimizda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha amaliy natijalarga erishilayotganini alohida ta'kidladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) ham O'zbekistonning iqtisodiy liberallashtirish dasturini izchil qo'llab-quvvatlab kelmog'ga. Jamg'arma tahlillarida 2017-yildan buyon valyuta kursini erkinlashtirish, savdo va narxlarli liberallashtirish, bozor mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiy o'sishning barqaror manbasi sifatida xususiy sektorni kengaytirish va tadbirkorlikni har tomonlamo qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirish doirasida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlarda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklash, tekshiruv tizimini raqamlashtirish hamda sud-huquq kafolatlarini mustahkamlash masalalari izchil va tizimli ravishda mustahkamlanmog'ga.

mamlakatga sezilarli xorijiy sarmoyalar kirib kelishini ta'minlagani qayd etilgan.

XVJning 2025-yilgi hisobotida "O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishda sezilarli taraqqiyotga erishdi. Islohotlar natijasida investitsiyalar, iqtisodiy o'sish va qashshoqlikni qisqartirishning ijobiy bosqichi shakllandi", deya ta'kidlanishi yurtimizda yuritilayotgan strategik siyosat to'g'ri yo'naltirilganini anglatadi.

Bunday xalqaro e'tiroflar mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimli va barqaror yo'lga qo'yilganidan dalolatidir. Nufuzli institutlar rahbarlari O'zbekistonni ochiq iqtisodiyot va qulay investitsiyaviy muhit yaratish yo'lida jadal rivojlanayotgan davlat sifatida ta'riflamog'ga. Bu esa tashqi sarmoyadorlar ishonchi ortib, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish jarayonlari yanada faollashganida ko'rinyapti.

Ayni paytda keng ko'lamlil islohotlarni yanada chuqurlashtirish, huquqiy kafolatlarni amaliyotda mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatiga oid huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmog'ga. Statistik tahlillar ayrim protsessual normalarni aniqlashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini birxillashtirish zaruratiini ko'rsatadi.

Masalan, 2024-yilda tadbirkorlik subyektlari bo'yicha jinoyat ishlarning 15 foizdan ortig'i oqlov yoki ishni tugatish bilan yakunlangani ayrim holatlarda protsessual yondashuvlarni yanada takomillashtirish mumkinligini anglatadi. Shu bois, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni jinoyat-huquqiy baholashda aniq mezonlarni belgilash, huquqiy aniqlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Amalga oshirilgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida birinchi



Dolzarb mavzu

QULAY INFRATUZILMA —

Insonlar yashash darajasi va qayerda istiqomat qilishidan qat'i nazar, kuniga o'rtacha 78 daqiqasini yo'lga sarflaydi. Bu vaqt bir qarashda ko'p tuyulmasligi mumkin, biroq u yillar davomida yig'ilib, hayotimizning ajralmas va hal qiluvchi bo'lagiga aylanadi.

Yaqin o'tmishimizda bu vaqt nafaqat masofani bosib o'tish, balki nosoz infratuzilma sabab yuzaga kelgan mashaqqatlarga sarflandi. Vaqt — eng bebaho ne'mat, tiklab bo'lmaz resurs. Biroq yomon yo'llar millionlab insonlarning qimmatli vaqtini o'g'irladi. Eng yomoni, zamonaviy va sifatli yo'llar yetishmasligi iqtisodiyot rivojini sekinlashtiruvchi omillardan biriga aylanib, ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko'rsatish sohasida qo'shimcha xarajat, vaqt yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Qisqasi, yo'llarning yomon holati taraqqiyotning oyog'iga tushov bo'lib qolgandir.

Mamlakatimizda yo'l infratuzilmasini rivojlantirish borasida haqiqiy burilish yuz berdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu soha ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib, keng ko'lamlil qurilish va rekonstruksiya ishlari boshlandi. Yo'llarga iqtisodiyot, turizm va hududiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi asosiy omil sifatida qarala boshladi.

2009-2016-yillarda 9 trillion so'm evaziga ming kilometrdan ko'proq yo'l qurilgan va 20 ming kilometr yo'l ta'mirlangan bo'lsa, so'nggi sakkiz yilda bu ko'rsatkich sakkiz barobargacha o'sdi. Ya'ni 2017-2025-yillarda sohaga qariyb 73,7 trillion so'm ajratilib, 2000 kilometr yo'l yangidan barpo etildi, 122 ming kilometr yo'l ta'mirlandi. Asosiysi, yo'llarni zamonaviy yondashuvlar asosida qurishga e'tibor kuchaydi. Masalan, loyiha

hujjatlarining namunaviy andozalaridan voz kechilib, har bir hududning geologik va ekologik xususiyatidan kelib chiqish usuliga o'tildi.

Prezidentimizning 2023-yil 10-oktabrdagi "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yurtimizda zamonaviy avtomobil yo'llarini barpo etish bo'yicha yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qaror yo'l xo'jaligini boshqarishning zamonaviy tizimini yaratish va raqamlashtirish, sohada sifat nazoratini kuchaytirish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, xususiy sektor korxonalarini keng jalb qilish uchun sharoit yaratish hamda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilyotganini bilan ahamiyatlidir.

Hujjatda yo'l infratuzilmasini tubdan yangilash, aholi uchun harakatlanish bo'yicha qulay sharoit yaratish hamda milliy iqtisodiyotga logistika zanjirlarini mustahkamlash asosiy vazifalar etib belgilandi. Shu maqsadda Toshkentdan Samarqand va Andijonga etuvchi muqobil magistrallar qurilishi rejalashtirildi. Jumladan, Toshkent — Andijon tezayur avtomagistrali loyihalashtirildi.

Ushbu magistral foydalanishga topshirilgandan so'ng Toshkent bilan Andijon o'rtasidagi safar vaqti besh soatdan uch soatgacha qisqardi. Bu nafaqat harakatni tezlashtiradi, balki iqtisodiyotga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yalpi ichki mahsulot hajmi 2,6 foiz oshishi, avtofoalakatlar esa qariyb 40 foiz kamayishi kutilmog'ga.

Yana bir muhim tashabbus Toshkent va Samarqandni bog'lovchi yangi avtomobil yo'lining barpo etilishidir. Xorijlik mutaxassislar ishtirokida loyihaning texnik, iqtisodiy asoslari

ishlab chiqilgan. Bu yo'l ishga tushirilgach, ikki shahar o'rtasidagi qatnov vaqti 4,5 soatdan 2,5 soatgacha qisqardi. Shu bilan birga, tirbandlik ham ancha kamayadi. Muhimi, yangi magistralar barcha zamonaviy talablarga javob beradigan, xavfsiz va qulay bo'ladi.

Mamlakatimizning shimoliy hududida yo'l muammosi uzoq yillar eng og'riqli masalalardan biri bo'lib keldi. Xorazmni Qoraqalpog'iston bilan bog'lovchi yo'llarda haydovchiyu yo'lovchilar qanchadan-qancha qiyinchiliklarni boshdan kechirgani hech kimga sir emas. Qo'ng'iro't — Beynov yo'lining qayta qurilgani esa bu muammoga qo'yilgan eng muhim yechimlardan biri bo'ldi. Agar sanab chiqsak, bunday yirik va ahamiyatli loyihalarining adog'iga yetish mushkul.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Urganch — Xiva yo'nalishida ilk pulli avtomobil yo'li qurilishining boshlangani yurtimizda yo'l infratuzilmasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish borasida navbatdagi ulkan qadam.

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida avtomobil yo'llarining sifatini yaxshilash, tranzit salohiyatini yanada oshirish maqsadida besh yillik dastur amalga oshirilishi qayd etilgandi. Bunda Andijon bilan Qo'ng'iro'tni, Toshkent bilan Termizni, Samarqand bilan Shahrisabzni, Olot bilan Sariyosni bog'laydigan, uzunligi 4000 kilometrli magistral xalqaro talablarga mos "avtoaban"larga aylantiriladi.

2026-yilning o'zida Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo hududidan o'tgan umumiy foydalanishdagi 300 kilometr yo'lda rekonstruksiya ishlari yakunlanadi. Toshkent — Samarqand yo'lining qurilishi mart oyidan, qolgan

Yoshlarimizning salohiyatini ro‘yobga chiqarish — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy garovidir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY DRAYVERI



Shuhrat ORIPOV,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Hozir shular haqida o‘ylasam, ko‘ngilning bir chetida qolib ketgan alamli og‘riqlar uyg‘onadi. O‘sha kezlarda yosh va g‘ayrati bo‘lganmiz. Qalbimizda ko‘p orzu-umidlilar, g‘oyalalar bor edi. Lekin o‘sha davrlarda bizni eshitadigan, g‘oyalalarimizni amalga oshiradigan va bizni yangi maralarga undaydigan kuch bo‘lmagan. Davrlarda jo‘shib o‘z fikrimizni bayon qilganimizda bizga rag‘bat berilmagan, g‘oyalalarimiz qadr topmagan. Faolligimiz va tashabbuslarimiz uchun katta avlodning ko‘p qarshiligiga duch kelganmiz. Bular yurakda alamli og‘riqqa aylangan.

Bugunning yoshlarida imkonning hammasi bor!

Eng muhimi, ular bilan muloqot qiladigan va g‘oyalalarini ro‘yobga chiqaradigan davlat rahbari bor. Shubhasiz, O‘zbekiston yoshlarini harakatga keltirib, ularga erkin maydon va minbar berib, xalqaro sahnalardagi ulkan zafarlarga ilhomlantiruvchi shaxs Prezidentimizdir.

Keyingi yillardagi tizimli islohotlar natijasida yoshlarga oid davlat siyosati ham shaklan, ham mazmunan tubdan o‘zgardi. Yoshlar bilan ishlash va ularning kamoloti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mamlakatimizdagi katta-kichik har bir rahbarning ustuvor vazifasi etib belgilandi. Maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta‘lim tizimida keng ko‘lamli yangilanishlar sodir bo‘ldi.

So‘nggi sakkiz yilda xususiy sektor bilan birga bog‘chalaridagi o‘rinlar 2,5 millionga, qamrov 78 foizga yetkazildi. Yangi maktablar barpo etilgan va mavjudlari kengaytirilgan hisobiga qo‘shimcha 1 million o‘quvchi o‘rni ochildi. Shu davrda oliy ta‘limdagi qamrov 9 foizdan 42 foizga yetkazilgan tizimdagi keskin burilishni anglatadi. Sport va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar jismonan sog‘lom, barkamol avlodni kamol topirish va Vatanimiz nomini dunyoga tanitadigan yangi iste‘dodlarni yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lmoqda. O‘zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng yuqori sur‘atda rivojlanayotgan davlat deb e‘tirof etilgan ham yoshlar siyosati yo‘nalishidagi sa‘y-harakatlarning amaliy mahsulidir.

Aynan shu davrda Prezidentimizning yoshlar bilan muloqoti an‘ana aylandi. Joriy yil 24-fevral kuni bo‘lib o‘tgan navbatdagi uchrashuv davlat va yoshlar o‘rtasidagi institutsional muloqotning yangi bosqichini boshlab berdi. Unda 60 mingdan ziyod yigit-qiz ishtirok etgani, muhokama qilingan masalalarning qamrovi va e‘lon qilingan tashabbuslar tizimligi bu muloqotni strategik ahamiyatga ega siyosiy voqea sifatida baholash imkonini beradi.

Avval qanday edi?

Har qanday islohotning mohiyati va yangiligi qiyosiy tahlilda ko‘rinadi. Keling, yangi O‘zbekistondagi yoshlar siyosatini mustaqil taraqqiyotimizning avvalgi davrlaridagi holat bilan qiyosiy o‘rganaylik.

Mamlakatimizda yoshlar siyosati mustaqillikdan keyin davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib keldi. Biroq mazmun-mohiyati, institutsional asoslari va amalga oshirish mexanizmlari turli davrlarda turlicha xususiyat kasb etgan. Ayniqsa, 1991-2016-yillar va 2017-yildan keyingi davr o‘rtasida yoshlar siyosatida konseptual va amaliy jihatdan sezilarli farqlar kuzatiladi.

O‘zbekiston taraqqiyotining dastlabki davrida ijtimoiy rivojlanishda ma‘naviy-tarbiyaviy siyosat ustuvorlik kasb etdi. Bu davrda yoshlar manfaatlarining huquqiy kafolatlarini yaratish, xususan, ularning ta‘lim olishiga doir qonunchilik bazasi shakllantirildi. O‘sha kezlarda yoshlar siyosati asosan milliy davlatchilikni mustahkamlash, ma‘naviy tarbiya va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan edi. Yoshlar siyosatining markazida milliy qadriyatlar, ma‘naviyat, davlatga sadoqatli kadrlar tayyorlash kabi g‘oyalalar turardi. Bu davrda yoshlar siyosati ko‘proq ijtimoiy-tarbiyaviy yo‘nalishda bo‘lib, iqtisodiy mustaqillik va yoshlar tadbirkorligini omnaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi cheklangan edi.

Dastlabki yillarda “Kamolot” jamg‘armasi faoliyat yuritdi. 2001-yilda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etildi. Harakatning bolalar qanoti sifatida “Kamalak” tizimi ham yo‘lga qo‘yildi. Bu yoshlarni davlat siyosati atrofida birlashtirishga qaratilgan markazlashgan tizim edi. Lekin bu davrda yoshlarga oid siyosatni amalga oshiradigan va muvofiqlashtiradigan yagona davlat organi mavjud bo‘lmagan. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, xususan, ularning bandligini ta‘minlash borasida muammolar bor edi. Bu muammolarni hal etish mexanizmlari qonunchilikda va ijro organlari faoliyatida aniq belgilab qo‘yilmagan, mavjud mexanizmlar ham zaif va tor doirada edi. Masalan, qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflarni parlament minbarlariga yoki yoshlarning hududlardagi ijtimoiy muammolarini mahalliy kengashlar kun tartibiga olib chiqish oson emasdi. Yoshlar siyosatiga doir chora-tadbirlar asosan yil dasturlari doirasida amalga oshirilardi. Yoshlarning aynan bir qatlamiga yo‘naltirilgan yoki muayyan muammolarni bartaraf etishga mo‘ljallangan maqsadli ijtimoiy dasturlar kam edi. Davlat tomonidan yoshlar uchun bugungidek rag‘bat choralari va ochiq muloqot maydoni taklif qilinmagan.

Kechagi kunimizni yomonlash niyatidan yiroqman. Bu — biz bosib o‘tgan va mamlakatimiz tarixida o‘zining sezilarli izini qoldirgan taraqqiyot yo‘li. Aytayotgan fikrlarim o‘sha davrda yosh avlod vakili bo‘lgan va yoshlar bilan ishlash sohasida faoliyat yuritgan mutaxassisning amaliy tajribasi mahsul, shaxsiy qarashlari sifatida qabul qilinishini xohlardim. Yuqorida qayd etilgan holatlarning aksariyatiga amaliyotda ro‘baro‘ kelganman. O‘z vaqtida yoshlar masalalarini turli minbarlarga olib chiqish va ularni hal etish jarayonlarida bevosita qatnashganman.

Albatta, 1991-2016-yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan yoshlar siyosati yosh avlodning jismoniy va ma‘naviy kamolotiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Buni tan olmaslik va e‘tirof etmaslik adolatdan bo‘lmaydi. Lekin bu davrdagi yoshlar siyosatiga baho berishda uning nisbatan ma‘naviyat omiliga yo‘naltirilgan, asosan ijtimoiy-siyosiy tarbiya hamda safarbarlikka qaratilganini qayd etish lozim. Boshqacha aytganda, avvalgi davrda yoshlar siyosati milliy davlatchilikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, markazlashgan tashkilotchilik modeliga tayangan edi.

Nimalar o‘zgardi?

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar siyosati institutsional va huquqiy jihatdan chuqurlashib, davlat taraqqiyot strategiyasining ustuvor qismiga aylandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan asos solingan yoshlar siyosati ko‘p jihatdan yangicha va farqli.

2016-yilda bo‘lib o‘tgan Prezidentlik saylovlari davrida davlatimiz rahbari “Yoshlar bilan ishlash masalasi ijtimoiy siyosatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu borada keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishni taqozo etadi”, deb ta‘kidlagan edi. Darhaqiqat, 2017-yildan yoshlarga oid davlat siyosati sohasida tizimli va keng ko‘lamli islohotlar davri boshlandi.

Birinchidan, yoshlarni “ijtimoiy guruh” emas, “demografik-iqtisodiy resurs” sifatida boshqarishga o‘tildi. Aniqlik, yoshlar masalasi “tarbiya” doirasidan chiqib, mehnat bozori, bandlik, tadbirkorlik va inson kapitali mantig‘iga ko‘chdi.



Buning amaliy isbotini ayrim raqamlar misolida ham ko‘rish mumkin. O‘tgan yili yoshlar bandligini ta‘minlash uchun banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar yo‘naltirilgan, “Yoshlar biznesi” va “Kelajakka qadam” dasturlari hisobidan 15 ming yigit-qiz tadbirkorligini yo‘lga qo‘yib, 50 ming kishini ish bilan ta‘minlagan.

Ikkinchidan, yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi muhim institutlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yoshlar siyosati alohida davlat siyosati yo‘nalishi sifatida huquqiy va tashkilotchilik jihatidan takomillashtirildi. Boshqacha aytganda, yoshlar siyosati “tashkilot”dan “davlat tizimi”ga o‘tdi.



Xususan, 2016-yil 14-sentabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu yoshlar siyosati rivojida yangi bosqich sifatida baholandi.

2017-yil 30-iyun kuni davlatimiz rahbari “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston Yoshlar ittifoqini ta‘sis etish tashabbusini bildirdi. O‘sha yil 5-iyulda Prezidentimizning davlat yoshlar siyosati samaradorligini oshirish va Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralarini haqidagi farmoni qabul qilindi.

2020-yil 30-iyunda yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi va muvofiqlashtiruvchi davlat organi — Yoshlar ishlari agentligi tuzildi. Mazkur agentlik tashkil qilinishi bilan yoshlar siyosati alohida davlat boshqaruvi institutiga aylandi. Shu tariqa bosqichma-bosqich yoshlar bilan ishlash sohasidagi davlat boshqaruvi arxitekturasini yangilandi.

Uchinchidan, yoshlar bilan ishlashda “Ijtimoiy dasturlar va bozor mexanizmlari” uyg‘unligiga asoslangan yangicha tizimga asos solindi. Bu tizim iqtisodiy rag‘bat orqali yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochishni ko‘zda tutadi. Hozir yoshlar siyosatida davlatning roli faqat “tarbiya” emas, balki kredit, grant, inkubatsiya, franshiza,

infrazuzilma xarajatini qoplash kabi iqtisodiy vositalar orqali namoyon bo‘lyapti.

Misol uchun, muloqotda innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat berilishi e‘lon qilindi. Servis va umumiy ovqatlanish sohasida mingdan ziyod ish o‘rni ochgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqqan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy qilinadi.

To‘rtinchidan, yoshlar bilan ishlashda inkluzivlik va “ikkinchi imkon” siyosatiga ahamiyat berilmoqda. Bugun yoshlar siyosatida yangi qatlam — jamiyatning asosiy ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlariga to‘liq qo‘shila olmagun, uyushmagan yoshlar guruhi bilan ishlash ham alohida dasturga aylanyapti. Masalan, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan yoshlarning jamiyatga tez moslashishi uchun “Ikkinchi imkon” loyihasi amalga oshiriladi. Unga asosan 8-12 oy intensiv kurslarda kasb va chet tili, daromadli ishga tayyorlash choralarini ko‘riladi.

Beshinchidan, yoshlar “iqtisodiy drayver” sifatida baholalanmoqda. Muloqotda yoshlar tadbirkorligi uchun qo‘shimcha 200 million dollar ajratish, kredit miqdorini keskin oshirish, venchur moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirish, biznes inkubatorlar joriy etish bo‘yicha bildirilgan tashabbuslar mohiyatan yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan tizimli siyosatni namoyon etadi. Bu O‘zbekiston rahbariyati yoshlarni iqtisodiy o‘shish resursi sifatida ko‘rayotganini anglatadi.

Oltinchidan, yangi davrda davlat — jamiyat muloqoti kuchaydi va fuqarolik institutlarining roli oshdi. Yoshlar ishtirokini kengaytirish mexanizmlari davlat strategiyasining bir qismi sifatida shakllanmoqda.

Prezidentimizning yosh avlod vakillari bilan muloqoti jamiyatda fuqarolik tashabbusiga uchun yangi to‘liqni paydo qilmoqda. Davlat bunday uchrashuvlar orqali yoshlarning ovoziini eshitmoqda va ularning ijtimoiy kayfiyatini his qilmoqda. Bunga javoban yangi tashabbuslar, natijaga yo‘naltirilgan dasturlar va iqtisodiy rag‘bat bilan navqiron avlodning intilishlariga kuchli turki bermoqda.

Yoshlar siyosatini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ishtiroki ham yildan yilga faollashmoqda. Fuqarolik institutlarining loyihalarini davlat buyurtmasi va grantlar orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Har yili 30-iyun O‘zbekistonda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlan kelinayotir. Davlatimiz rahbarining yangi tashabbusiga muvofiq, endi payshanba kuni vazirlik, idora va hokimliklarda “Yoshlar kuni” bo‘lishi belgilandi. Shu kuni mas‘ul rahbarlar mahalla, maktab va texnikumlarga borib, yoshlarni eshitadi va muammosini hal qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, 2017-yildan buyon O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlash sohasi yangicha model asosida rivojlanmoqda. Bu model yoshlar siyosatini islohotlar drayveri, ochiq muloqot, pragmatik natija tamoyillari asosida qurishni anglatadi. Prezidentimizning tizimli islohotlari natijasida yoshlar siyosati institutsional jihatdan mustahkamlandi, iqtisodiy mazmun bilan boyitildi, inson kapitali va tadbirkorlikka yo‘naltirildi, davlat — jamiyat muloqoti mexanizmlari kuchaytirildi.

Bugun yoshlarga oid davlat siyosati yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi va muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu siyosat jamiyat va davlat uchun uzoq muddatli strategik ta‘sirga ega hamda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda inson kapitali o‘shishi va iqtisodiy faolligining oshishi, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik faolligining kuchayishi, davlat boshqaruvi samaradorligining oshishi, milliy xavfsizlik va ma‘naviy barqarorlikning mustahkamlanishi kabi salmoqli natijalarni o‘tgan davrda to‘g‘ri yuritilgan yoshlar siyosatining amaliy mahsulati sifatida baholash lozim. Bu siyosatning izchilligini ta‘minlash orqali O‘zbekiston 2030-2040-yillarda mintaqaviy bilim va xizmatlar markaziga aylanishi mumkin.

Tarixiy uchrashuv. Nega?

Ayrim tadqiqotchilar Prezidentimizning rahbarlik uslubini “transformatsion liderlik” sifatida baholaydi, ya‘ni davlat barcha islohotni jamiyat bilan muloqot asosida amalga oshiradi. Davlatimiz rahbari yoshlar siyosatiga ham aynan shunday yondashmoqda. 2017-yildan keyingi davrda yosh avlod vakillari bilan an‘anaviy tus olgan muloqotlar yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda o‘ziga xos hamkorlik platformasi vazifasini bajarmoqda.

Bu galgi uchrashuvda 22 milliondan ziyod yigit-qiz iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch ekani ta‘kidlandi hamda bu demografik omil strategik resurs sifatida e‘tirof etildi. Shuningdek, mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar oqimini samarali bandlik, ta‘lim va tadbirkorlik orqali rivojlanish drayveriga aylantirish strategiyasi ilgari surildi. Muloqotda yoshlar tadbirkorligini iqtisodiy transformatsiya omiliga aylantirishga qaratilgan qator tashabbuslar e‘lon qilindi. Misol uchun, “Kelajak tadbirkori” dasturi ishga tushirilib, yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgacha 15 foizli kredit ajratiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so‘mgacha, tadbirkorlik ko‘nikmasiga ega bo‘lib biznes boshlayotganlarga 300 million so‘mgacha, faoliyatini kengaytirmoqchi bo‘lganlarga 2 milliard so‘mgacha, kamida 5 nafar bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga esa 10 milliard so‘mgacha kredit berilishi belgilandi. Bu yondashuv inson kapitali nazariyasi va innovatsion iqtisodiyot modellari muvofiq yoshlarni ish izlovchidan ish beruvchiga aylantirishga qaratilgan.

Qanday natijalarga erishdik?

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatining bunyodkorligi va natijadorligini yigit-qizlarning yangicha qiyofasi, yildan yilga o‘shib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi hamda ular erishayotgan olamshumul yutuqlar misolida ko‘rish mumkin.

Keling, buni aniq misollarda tahlil qilaylik. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish, startap va venchur mexanizmlarini joriy etish, kasbiy ta‘limni mehnat bozori talabiga moslashtirish kabi choralar yoshlarni ish izlovchidan ish beruvchiga aylantirishga xizmat qilmoqda. Natijada kichik va o‘rta biznesda yoshlar ulushi ortdi, xizmat ko‘rsatish va axborot texnologiyalari sohasida yangi ish o‘rinlari ochildi, ichki iqtisodiy faollik kuchaydi.

Mamlakatimizda har yili yuz minglab yigit-qiz mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Yoshlar siyosatining iqtisodiy yo‘nalirilgani ishsizlik xavfini pasaytiradi, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi, soliq bazasini kengaytiradi. Bu davlat byudjeti barqarorligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yangi davrdagi islohotlar yoshlar qatlamining ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ishtirokini kengaytirdi. Xususan, volontyorlik harakatining rivojlanishi, yoshlar tashabbuslarini grantlar orqali qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish jamiyatda fuqarolik faolligini oshirdi. Yoshlar forumlari, ochiq muloqotlar va institutsional platformalar orqali yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ortmoqda. Buning amaliy samarasini yoshlarda ijtimoiy mas‘uliyatning kuchayishi, jamoatchilik nazorati madaniyatining shakllanishi, ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlat va jamiyat hamkorligi misolida ko‘rib turibmiz. Bu jihatlar jamiyatimiz barqarorligi uchun o‘ta muhim. Chunki jamoatchilik ishtirokining kuchayishi jamiyatda shonli va barqarorlikni ta‘minlaydi.

Ushbu yo‘nalishdagi izchil chora-tadbirlar jamiyatimizdagi radikallashuv va ijtimoiy xavflarning kamayishiga olib keldi. Zero, yoshlar bandligi va ma‘naviy muhitni mustahkamlash ekstremizm va jamiyatdan ijtimoiy chetlashuv xavfini kamaytiradi. Boshqacha aytganda, bugungi iqtisodiy imkoniyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning kengayishi yoshlar orasida ijtimoiy tushkunlik darajasini pasaytirishga xizmat qilmoqda. Yoshlar siyosatida kitobxonlikni ommalashtirish, madaniyat va sportni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy tillarni o‘rganishni rag‘batlantirish kabi yo‘nalishlar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirmoqda.

Yoshlar ishlari bo‘yicha alohida davlat institutining shakllanishi yoshlar siyosatida tizimlilikni ta‘minladi. Bu boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat siyosatining maqsadli va manzilli amalga oshirilishini kuchaytirish, hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi davrning yoshlar siyosatini ham tadrijiy bosqichlarga bo‘lish mumkin. Jumladan, o‘z mohiyatiga ko‘ra islohotlar institutsional yangilanish (2016-2021-yillar), iqtisodiy chuqurlashuv (2021-2023-yillar) va barqaror innovatsion rivojlanish bosqichi (2023-yildan keyingi davr) sifatida tasviflanadi.

Ta‘lim — mehnat bozori integratsiyasiga doir tashabbuslar ham e‘tiborga molik. Texnikumlarda dual ta‘limni kengaytirish, “spin-off”larga ruxsat berish, “Work and Travel” dasturini joriy etish kabi choralar ta‘lim tizimini mehnat bozori talabiga moslashtirishni ko‘zlaydi. Bu mohiyatan ta‘lim samaradorligini oshirish va ishsizlik xavfini kamaytirishga qaratilgan.

Uchrashuvda volontyorlik harakatini rivojlantirish, “Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasini tashkil etish, volontyorlik loyihalariga 100 million so‘mgacha grantlar ajratish va “ijtimoiy faollik kartasi”ni joriy etish rejalashtirildi. Ijtimoiy kapital va fuqarolik faolligini kuchaytirishga qaratilgan bu chora-tadbirlar yoshlarda ijtimoiy mas‘uliyat va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish mexanizmidir.

Mazkur muloqotning tarixiy ahamiyatini qator omillar bilan asoslash mumkin. **Birinchi**dan, tadbir davlat — yoshlar munosabatlarining yangi modelini namoyon qildi. Bu uchrashuv yoshlarni siyosat obyektiga emas, balki subyekt sifatida ko‘rishga asoslangan yangi boshqaruv modelini mustahkamladi.

Ikkinchidan, institutsional islohotlarning chuqurlashuvi yaqqol ko‘rindi. Kredit siyosatidan tortib, ta‘lim, soliq imtiyozlari va venchur jamg‘armalarigacha bo‘lgan kompleks yondashuv davlat siyosatida tizimlilik bosqichiga o‘tilganini anglatadi.

Uchinchidan, hozir innovatsion iqtisodiyotga o‘tish bosqichida ekonimiz yanada oydinlashdi. Startaplar, venchur investitsiyalar, xalqaro hamkorlik, “Take Off” sammiti kabi tashabbuslar O‘zbekistonning xomashyoga emas, bilim va innovatsiyaga tayangan iqtisodiyot modeliga o‘tishini tezlashtiradi.

To‘rtinchidan, milliy ma‘naviy siyosatning yangi bosqichiga kirib borayotganimiz ayon bo‘ldi. Kitobxonlik, tarjima dasturlari, ijodkorlarni rag‘batlantirish orqali ma‘naviy kapitalni mustahkamlashga qaratilgan choralar davlat siyosatining faqat iqtisodiy emas, balki madaniy-sivilizatsion yo‘nalishga ega ekanini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, muloqot 2030-yilgacha mo‘ljallangan strategik demografik resursni iqtisodiy ko‘rsatib berdi. Har yili 600 ming, 2030-yilga borib 1 million yosh mehnat bozoriga kirib kelishi sharoitida bu tashabbuslar kelgusi ijtimoiy bosimlarning oldini olishga qaratilgan, puxta o‘ylangan siyosat, desak xato bo‘lmaydi. Islohotlardan ko‘zlangan samaraga erishlsa, ya‘ni yoshlar sifatli ta‘lim olsa, kasbga ega bo‘lsa, iqtisodiy faollashsa, 2030-2040-yillarda O‘zbekistonda malakali kadrlar qatlami shakllanadi, yuqori qo‘shimcha qiymatli iqtisodiyot barpo etiladi, innovatsion milliy brendlari paydo bo‘ladi.

Prezidentimizning yoshlar bilan navbatdagi muloqoti mazmunan demografik resursni iqtisodiy kuchga aylantirish, yoshlar tadbirkorligini milliy taraqqiyot drayveriga chiqarish, ta‘lim va mehnat bozori integratsiyasini ta‘minlash, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, inkluzivlik va ma‘naviy siyosatni kuchaytirish kabi strategik vazifalarni belgilab bergani bilan tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy nuqtayi nazaridan, mazkur uchrashuvni O‘zbekistonda yoshlar siyosati tadrijiy rivojlaning institutsionallashgan va iqtisodiy transformatsiyaga qaratilgan yangi bosqichi sifatida baholash mumkin.

So'xda 500 gektar olma, malina va o'rik, Termizda 164 gektar o'rik va shaftoli, Ohangaronda 309 gektar, Bulung'urda 550 gektar hamda Quvada 60 gektar yerda uzumning "Avatar" navi, Popda esa 504 gektar shaftoli va olxo'ri plantatsiyalari tashkil qilindi.



Sharh



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

DEHQONCHILIK ILMI:

QISHLOQ XO'JALIGIDA YANGI BOSQICH SARI

Boshlanishi 1-betda

Chorvadorlar umid bilan osmonga qarayapti. Chunki yaylov tiklansa — chorva boqladi, chorva bo'lsa — tirikchilik yuradi. Aks holda, ha, har bir ishning yaxshi tomonini ko'rish kerak, deyishadi. Ammo bugun yaylov masalasi chorvadorlarni jiddiy tashvishga solayotgani ham haqiqat. So'nggi yillarda tartibsiz foydalanish, me'yorlarga amal qilmasslik va e'tiborsizlik oqibatida ko'p-lab yaylovlarda mol boqish qiyinlashib qoldi. Natijada ayrim hududlarda chorvachilik daromad manbai bo'lishdan ko'ra, ortiqcha tashvishga aylanib bormoqda.

Achinarlisi shundaki, yaylovlar yo'qolib borayotgani ko'pincha ko'zga tashlanmaydi. Ular bir kunda emas, asta-sekin, yillar davomida yemiriladi. Bugun o't chiqmayotgan yer etarga chang bosgan sahroga aylanadi. Bu esa nafaqat chorvadorning, balki butun jamiyatning yo'qotishidir. Zero, yaylov faqat chorva boqiladigan maydon emas, balki oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq aholisining bandligi va ekologik muvozanatni ta'minlovchi muhim resursdir.

Bugun yaylovni asramasak, etarga chorvani, undan keyin esa butun oziq-ovqat zanjirini yo'qotish xavfi tug'iladi. Demak, yaylov masalasi bugun qishloq ahli muammosi emas, balki milliy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq strategik masalaga aylanmoqda.

Aynan shu voqealar — yaylovlar taqdiri, yerga munosabat va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq masalalar bugun davlat siyosati markaziga chiqayotgani bejiz emas. Zero, tabiat bergan imkoniyatlarni tasodifga tashlash yoki mavsumiy omillargagina bog'lab qo'yish orqali barqaror natijaga erishib bo'lmaydi. Shu bois, yaylovlardan foydalanish, ularni tiklash va samarali boshqarish masalasi endilikda tizimli, ilmiy asoslangan hamda uzoq muddatli yechimlarni talab etmoqda.

Ana shunday yondashuv doirasida davlatimiz rahbari 9-fevral kuni qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Yig'ilishda yaylovlar, sug'orish tizimlari va agrar ilm-fanni rivojlantirish masalalari ko'rildi.

So'nggi besh yilda amalga oshirilgan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari mamlakatimiz qishloq xo'jaligi salohiyatini yangi bosqichga ko'tarishda muhim qadam bo'ldi. Shu davr mobaynida 826,5 ming gektar yer qishloq xo'jaligi foydalanishiga kiritildi: shundan 409 ming gektari sug'oriladigan yer, 418 ming gektari esa lalmi va yaylov hisoblanadi. Yaylov va lalmi yerdan samarali foydalanishda yer osti suvidan to'liq va oqilona foydalanish hamda kam suv talab qiladigan ekinlarni joylashtirish muhim ahamiyat kasb etdi. Bu natijalar nafaqat yerning iqtisodiy qimmatini oshirdi, balki barqaror va mas'uliyatli yer munosabatini ilgari surdi.

2030-yilgacha rejalashtirilayotgan 938 ming gektar yaylov o'zlashtirish va holatini yaxshilash choralari esa uzoq muddatli strategik qadamning amaliy ifodasidir. Xususan, 2026-2027-yillarda 620 ming gektar yaylov tiklanishi, shundan 300 ming gektarida yaylov o'simliklari ekilishi, 130 ming gektarida quduqlar qazilishi ko'zda tutilgan. Bu tadbirlar 960 ming bosh mayda shoxli mol boqish, go'sht va jun ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi, shuningdek, yaylovlarning barqarorligi orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yangi yerni o'zlashtirishda har bir hudud bo'yicha aniq investor va loyiha asosida ish tashkil qilish talab etilishi esa barqaror va samarali natijalarga erishishning muhim



shartidir. Yerdan tasodifiy yoki nazoratsiz foydalanish orqali qisqa muddatli samaraga erishish mumkin bo'lsa-da, ilmiy asosda boshqarilgan yerlar uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy qimmatga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, yig'ilishda qishloq xo'jaligida ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish uchun institutsional infratuzilmani o'zgartirish zarurligi alohida qayd etildi. Bu

maqsadda sohadagi 22 ta ilmiy markaz, 260 ta laboratoriya hamda 2,5 mingdan ortiq olim va ilmiy xodimni yagona tuzilma — Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasiga birlashtirish rejalashtirilmoqda. Ushbu qaror tadqiqotlar va amaliyotni bir yo'nalishda muvofiqlashtirib, qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy va samarali yondashuvni ta'minlaydi.

Bu jarayonlar yerdan oqilona foydalanish, yaylovlarni tiklash va samarali boshqarish, qishloq xo'jaligida ilm-fanni mustahkamlash va kadrlar salohiyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Har bir qadam moddiy natija va ahamiyatga ega: yer va insonning uzviy aloqasi, barqaror rivojlanish va kelajakka mas'uliyatni namoyon etadi.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi faqat yerdan foydalanish va hosil olish emas, balki ilm-fan, texnologiya va inson kapitalini uyg'unlashtirish bilan ham chuqur bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, taqdimotda Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sifatida biotexnologiya va molekulyar biologiya, gen muhandisligi va gibrid urug'chilik, "aqlli" qishloq xo'jaligi, kosmik va dron texnologiyalari, yer degradatsiyasi va sog'lom tuproq, organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, veterinariya hamda raqamli qishloq

xo'jaligi sifatida belgilash taklif etildi. Bu yo'nalishlar ilmiy izlanishlarning chuqurligini, amaliyotga yaqin va natijali yechimlarni yaratish imkoniyatini ham anglatadi.

Akademiyada faoliyatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar esa ilmiy va amaliy ishlarni birlashtirib, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kelajakning agrar salohiyatini ta'minlash uchun kadrlar tayyorlash masalasi alohida ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi. Hozir Toshkent davlat agrar universitetida 13,6 ming talaba tahsil olayotgan bo'lsa-da, ularning amaliyot bilan bog'liqlik darajasi yetarli emas, bitiruvchilarning atigi 55 foizi faqat o'z sohasida ishlashi haqiqatini ko'rsatadi.

Shu bois, ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarishni uzviy bog'laydigan tizim yaratish hamda mehnat bozori talablariga mos ravishda yetuk mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Masalan, kelgusida universitet talabalarining 6,8 ming nafari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar, korxonalar va agroklasterlarda, 2,6 mingdan ortiq talaba esa Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi 22 ta ilmiy-tadqiqot institutida amaliyot o'taydi. Bu tizim talabalarni nazariy bilim bilan ta'minlab qolmay, ularni zamonaviy texnologiya va ish tajribasi bilan ham boyitadi.

Shuningdek, fermerlar va ularning xodimlari farzandlarining test sinovlarida belgilangan ballarga yeta olmagan taqdirda, kamaytirilgan to'lov-kontrakt asosida universitetga qabul qilish hamda yettita ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qish davomiyligini 4 yildan 3 yilga qisqartirish taklif qilindi. Bu tadbirlar talabalarni amaliyotga tezroq qo'shish va ularning zamonaviy texnika, masalan, traktorchi-mashinist guvohnomasi va agrodronlardan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy bilim va amaliyotni uyg'unlashtirish, talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lash va ularni sohada faol ishlash oladigan mutaxassisga aylantirish orqali yerdan samarali foydalanish va agrar salohiyatini rivojlantirish bir-biri bilan uzviy bog'langan strategik vazifaga aylanmoqda. Bu esa yer, inson va ilm-fan o'rtaida uzviy bog'liqlikni anglatadi hamda kelajak uchun barqaror va samarali agrar tizimni shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Yig'ilishda zamonaviy texnologiya va ilm-fan bilan birga Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyati ham muhim ahamiyatga ega ekani qayd etildi. O'tgan yili 44 ming gektar samarasiz yerlarda intensiv va sanoatlashtirilgan bog' hamda tokzorlar tashkil etilib, 37 ming yangi ish o'rni yaratildi. Bu mahalliy aholi uchun iqtisodiy foyda keltirdi, shuningdek, agrar salohiyatni kengaytirishda muhim strategik qadam bo'ldi.

Tashkil etilgan bog' va tokzorlar 2027-yildan hosil berib, yillik 660 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Masalan, So'xda 500 gektar olma, malina va o'rik, Termizda 164 gektar o'rik va shaftoli, Ohangaronda 309 gektar, Bulung'urda 550 gektar hamda Quvada 60 gektar yerda uzumning "Avatar" navi, Popda esa 504 gektar shaftoli va olxo'ri plantatsiyalari tashkil qilindi. Bu raqamlar ko'rsatadiki, mahalliy resurslarni oqilona foydalanish orqali ichki ehtiyoj va eksport salohiyati sezilarli darajada oshiriladi.

Kelgusi yillarda bu ishlar davom ettirilishi, joriy yilda yana 25,5 ming gektar mevali bog' va 5 ming gektar uzumzor tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shu bilan birga, 48 ming doimiy va mavsumiy ish o'rni yaratish ko'zda tutilmoqda. Bu esa agrar sektorini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham mustahkamlashni ta'minlaydi.

Mamlakatimizga har yili 60 million dollar qiymatida ko'chatlar import qilinishi hamda uni mahalliy shartlarda, Yevropa standartlariga muvofiq tayyorlash imkoniyati mavjudligi ta'kidlandi. Bu borada agentlik 200 dan ortiq meva turining virusdan xoli, yuqori hosilli onalik navlari kolleksiyasini yaratdi. Ushbu meva turlarini ko'paytirish va barcha hududlarga yetkazib berish maqsadida Bektemir tumanida 50 gektar, Yuqorichirchiq tumanida esa 75 gektar "in-vitro" laboratoriyalar va onalik ko'chatxonalardan iborat majmualar tashkil etilmoqda. Yil yakuniga qadar ushbu majmualar ishga tushirilib, yiliga 27 million dona ko'chat tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Agrosanoatni rivojlantirish agentligining bu boradagi ishlari meva-sabzavot hosilini ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish va ish o'rnlari yaratishga xizmat qiladi, shuningdek, yer va resurslardan uzviy va samarali foydalanishning barqaror modelini namoyon etadi. Mazkur jarayonlar, o'z navbatida, mamlakatning agrar rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Har bir qadam — yerni samarali o'zlashtirishdan to'liq tadqiqot va kadr salohiyatini rivojlantirishga qadar — mamlakatimiz qishloq xo'jaligi siyosatining uzviy va oqilona tizimini shakllantiradi. Bu jarayonlarda asosiy g'oya shundan iboratki, yer va inson, ilm-fan va texnologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyot bir-biri bilan uzviy bog'langan.

Yaylovlarni tiklash, zamonaviy agrotexnika va dron texnologiyalaridan foydalanish, gen muhandisligi va biotexnologiyalar orqali mahsuldorlikni oshirish, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish — barchasi barqaror agrar rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, meva-sabzavot bog'lari va tokzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni mahalliy sharoitda tayyorlash va eksport salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy samara ham yaratiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Yer — xazina, suv — gavhar

QALBLARGA ISHONCH BERGAN O'ZGARISHLAR



Boshlanishi 1-betda

Ochiq o'zanlardagi suvning katta qismi yerga singish, bug'lanish oqibatida yo'qotiladi. Kanallarni betonlash esa ana shunday isrofini bir necha barobar kamaytiradi. Qolaversa, beton qoplama suv oqimini tezlashtirib, kanallarning foydali ish ko'effitsiyentini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa suvni aniq hisob asosida taqsimlash imkonini beradi. Natijada o'z vaqtida yetarlicha suv olgan dehqon va fermer xo'jaliklari himmoniga baraka kiradi.

Xalqimiz "Suv zar, suvchi zargar" deb bejiz aytmagan. Zargarona mahorat bilan suvdan unumli foydalanayotgan soha xodimlari mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi va xalqimiz dasturxonini to'kinligini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan Qoraqalpog'istondagi jami 43,8 kilometr uzunlikdagi 4 ta kanalda betonlash va rekonstruksiya ishlari bajarilayapti. Nukus tumanidagi Sorali, Shumanay tumanidagi Aq Jap, Taxiatosh tumanidagi Eski Keneges va Chimboy tumanidagi Tag' jap kanallarida ta'mirlash ishlari jadal sur'atda davom etyapti.

— Betonlash jarayonini ikki smenada tashkil etganmiz. Hozirgacha 4 ta kanalning jami 12 kilometrdan ortiq qismi beton quyishga tayyorlandi. Yana 5,2 kilometri betonlandi, — deydi "Qoraqalpog'istonsuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori vazifasini bajaruvchi Allayor Qaypov.

Qoraqalpog'iston — suv yetib kelishi qiyin bo'lgan hududlardan. Shu ma'noda, suvni tejash, undan samarali foydalanish hudud uchun juda muhim. Sohadagi yangilanishlar, bunga yetarlicha mablag' ajratilayotgani esa kishini quvontiradi. Xususan, Nukus tumanidagi Sorali xo'jaliklararo kanalining 7 kilometrini betonlash va rekonstruksiya qilish uchun 9 milliard 835 million so'm ajratilgan.

— Obyektda barcha ish texnologik talablar asosida bajarilayapti. Albatta, bu borada sifat va muddat birinchi o'rinda turadi. Shu bois, beton quyish ishlarni kechki va tungi smenalarda davom ettiryapmiz. Buning uchun obyektga o'ndan ortiq maxsus texnika va yetarli miqdordagi ishchi kuchini jalb etilgan, — deydi bosh pudratchi "Max Elit Stroy" MCHJ ish yurituvchisi Ilyos Po'latboyev.



yetib, foydali ish ko'effitsiyenti 80-85 foiz oshadi. Filtratsiyaning oldi olinishi hisobiga yiliga o'rtacha 2,4 million kub metr suv tejraldi. Natijada Nukus va Aqmang'it hududlaridagi 2943,2 gektar yer suv bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. E'tiborlisi, yaqin yillargacha Qoraqalpog'istonda kanallarni bunday keng ko'lmda betonlash ishlari deyarli bajarilmagan. Faqat qisman ta'mirlash ishlari bilan cheklanib kelingan. Oqibatda ko'plab kanallar o'z loyiaviy quvvatini yo'qotgan. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu sohada o'zgarish mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, kanallarni betonlash borasida izchil islohotlar o'tkazilyapti.

Chimboy tumanidagi Tag' jap kanali rekonstruksiya ishlari uchun 20 milliard so'mga yaqin mablag' ajratilgan. Bu pul evaziga 13,3 kilometr uzunlikdagi kanal to'liq betonlanadi.

— Hozir Chimboy tumanidagi Tag' jap kanalda betonlash ishlarni bajaryapmiz, — deydi qurovchi Ruslan Bekiyev. — Bugungacha 13,3 kilometr uzunlikdagi kanalning 2 kilometrini betonladik.



Jamoamiz 50-60 ishchidan iborat. Kuniga 80-90 kub metr joyni betonlayapmiz. Loyihani shu yil aprelda yakunlashni niyat qilganmiz.

Tag' jap kanali 1938-yili ishga tushirilgan. U Kegeyli kanalidan suv olib, 4136 gektar yerga suv yetkazib beradi.

— Bu kanal Tag' jap ovul fuqarolar yig'ini hududidan o'tgan. Undan 16 ta fermer xo'jaligi va 4500 fuqaro tomorqasini sug'oradi, — deydi "Tag' jap" ovul fuqarolar yig'ini raisi Kamoliddin Abdurahimov. — O'vulimiz aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik. Rostini aytganda, suv kanalning oxirigacha yetib bormasdi. Shu bois, odamlar qiyinchiliklarga duch kelardi. Endi shu muammo hal etiladigan bo'ldi.

Shumanay tumanidagi Aq jap kanali 1946-yildan buyon mavjud. Shu kungacha kanalda rekonstruksiya ishlari bajarilmagani bois, suvdan foydalanish ko'effitsiyenti 60 foizga tushib ketgandi.

— Ushbu kanalning 2 kilometr qismi to'liq betonlandi. Tuproq ishlari 6,5-7 kilometri tashkil etmoqda. Kanalni betonlash ishlari 20 dan ortiq texnika jalb qilingan, — deydi "Qoraqalpog'istonsuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori vazifasini bajaruvchi Allayor Qaypov. — Aq jap kanalidan 8 ta fermer xo'jaligining 3937 gektar yeri va 600 dan ortiq aholining tomorqasi sug'oriladi.

Suv — ulug' ne'mat. Tiriklik manbai. U bilan dasturxonimiz to'kin-sochin, bozorlarimiz noz-ne'matlarga to'la, turmushimiz farovon. Yangi O'zbekistonda xalqimizni suv bilan ta'minlash, dehqonlarimizga zarur sharoitni yaratish uchun bor imkoniyat ishga solinmoqda. Odamlarni rozi qilish, aholining turmush sharoitini yanada yaxshilashga qaratilgan islohotlar samara bera boshladi. Xususan, resurdlardan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi o'z isbotini topib bormoqda.

Minajatin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Til va tafakkur biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan hodisalardir. Bu haqiqat uzoq vaqt davomida inkor etib kelindi: go'yoki til shakl, tafakkur esa mazmun, til esa tafakkurni ifodalovchi shunchaki bir shakldek talqin qilindi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalarida

TIL VA ADABIYOT HAMISHA YASHAYDI

U O'ZINI GO'ZAL SHAKLLARDA NAMOYON QILAYERADI

O'zbekiston Fanlar akademiyasining O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yurtimizdagi shu yo'nalishlardagi eng yirik ilmiy markaz hisoblanadi. Institutda o'zbek adabiy tili, sotsiologiya, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi va adabiy aloqlar hamda folklor kabi bir nechta bo'limlar, shuningdek, folklor arxividek noyob ilmiy obyekt mavjud. Mazkur bo'limlarda xalqimizning qadimiy milliy o'zligi o'zagini tashkil qiluvchi va uni salomat saqlovchi til, badiiy so'z hamda xalq og'zaki ijodi durdonalari tilsimoti, shuningdek, ulardagi qiyosiz sinoatlarni inkishof qilish kabi muntazam ilmiy muddaolar asosida tadqiqotlar olib boriladi.



O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor, zamonaviy o'zbek tilshunosligining yirik vakili Nizomiddin MAHMUDOV bilan kechgan suhbatimiz o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida hamda xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish masalalari va bugungi adabiy jarayonlar haqida bo'ldi.

— Bugungi kunda O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining asosiy missiyasi nimadan iborat? Muassasa o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni qay darajada uddalaganida?

— Til faqatgina shakl yoki ovozdan iborat mohiyat yoxud hodisa emas, balki u benihoya ko'p vazifalarga ega bo'lgan bebaho ne'matdir. Atiqil olmon allossasi Vilgelm fon Gumboldt va uning zukko davomchilari tomonidan dangan e'tirof etilganidek, til kishilar o'rtasidagi shunchaki aloqa vositasigina emas, balki u millatning ko'rar ko'zi, eshtar qulog'i va anglar aqlidir. Har bir xalqning boshqalardan farq qiluvchi o'ziga xos milliy nigohi mavjud bo'lib, muayyan bir til vakili muayyan bir tovushni boshqasidan farqli ravishda eshitadi. Masalan, muayyan jonivor chiqaradigan tovushni barcha til egalari ham aynan bir xilda eshitmaydi. Shuning uchun til olamni bilishning birlamchi va qudratli quroli sanaladi.

Til va tafakkur biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan hodisalardir. Bu haqiqat uzoq vaqt davomida inkor etib kelindi: go'yoki til shakl, tafakkur esa mazmun, til esa tafakkurni ifodalovchi shunchaki bir shakldek talqin qilindi. Shu o'rinda mashhur "Tirik rus tilining izohli lug'ati" yaratuvchisi Vladimir Dalning (onasi olmon, otasi daniyalik) quyidagi so'zlarini esga olish kifoya qiladi: "Na kasb-kor, na diniy e'tiqod va na ajdodlar qoni kishining u yoki bu xalqqa mansubligini ko'rsatadi... Kim qaysi tilda o'yilasa va tafakkur qilsa, u o'sha xalqqa mansubdir. Men ruscha o'ylayman".

Dunyo adabiyotining nomdor namoyandasi Chingiz Aytmatov "Avezov haqida so'z" maqolasida "Til xalqning avtoportretidir" tarzidagi behad mantiqli va obrazli ta'rifni keltirib o'tgan. "Avtoportret" rassomning o'z qo'li bilan chizgan shaxsiy tasviridir. Chindan ham, masalan, o'zbek tili o'zbek xalqining siyratu suratini, tafakkur va taxayyul olamini, shuningdek, o'timish buguni boriha aks ettiradigan hamda egnini, shu tilning o'zi vositasida va "o'z qo'li" bilan "chizilgan" ham ichki, ham tashqi xolis qiyofasidir. Albatta, bu qiyofa xalqimizning ming yillik lisoniy-tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida, betakror madaniy va aqliy, adabiy-badiiy durdonalarida yaqqol bo'y ko'rsatib turibdi. Mazkur qiyofa parvarishu muhofazaga, e'zozu ehtiyotga muhtoj, ko'z qorachig'idek asrashga va yanada kamolot sari eltishga shoyon bo'lgan muhtasham boylikdir. Shuning uchun nafaqat yurtimiz tilshunosligida, balki dunyo tilshunosligida

ham tilni uning egasi, ya'ni sohibi bilan birgalikda o'rganish tamoyili (antropotsentrik tilshunoslik) yetakchilik qilmoqda.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirish, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini yuksaltirish, shu bilan birga, davlat tilining sofgilini saqlash, uni boyitib borish va zamonaviy axborot texnologiyalari hamda kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash institut faoliyatining asosiy yo'nalishi sanalib kelinmoqda. So'nggi sakkiz-to'qqiz yil ichida bu boradagi ilmiy izlanishlar puxta ishlangan rejalar asosida amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bevosita o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga qaratilgan bo'lib, unda 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlangan, shuningdek, 21-oktabrni O'zbek tili bayrami kuni deb belgilash va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tish choralari ko'zda tutilgan. Shubhasiz, bu farmon davlat tilini yanada rivojlantirish borasidagi ishlarni har jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining ishchi organi hisoblanadi. Taklif qilingan yangi so'z va atamalarni ilmiy jihatdan o'rganish, ekspertizadan o'tkazish, jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilish hamda yangi so'z va atamalar bo'yicha takliflarni Atamalar komissiyasiga kiritib borish vazifasi aynan institutimiz olimlari zimmasiga yuklatilgan.

Davlat tili to'g'risidagi qonun hozirgi kunda yana qayta ko'rib chiqilmoqda. Ilgari qamrab olinmagan jihatlarni yangi qonunda aks ettirish ustida jiddiy harakatlar qilinaypti. Zero, ona tili va davlat tili juda muhtasham tushunchalardir. Ona tili degani, yuqorida aytib o'tganimdek, bu o'sha millatning barcha narsasi: ichi, tashi, qalbi, yuragi, tarixi va bugunidir. Lekin uzoq yillar davomida o'zbek tiliga go'yoki faqatgina aloqa vositasi, ya'ni ikki odam o'zaro gaplasha oladigan vosita sifatida munosabatda bo'lindi. Aslida, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dunyo tilshunosligida antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishi shakllandi. Tilshunoslikda bevosita tilning o'zi o'rganiladi, lekin tilning markazida odam, uning tarixi, psixologiyasi, ruhiyati va mentaliteti turadi. Tilni o'rganiganda u faqat ega, kesim yoki ot, sifat, son emas, balki millatning kelib chiqishi, mentaliteti, tarixi, ruhiyati va tafakkuri sifatida ularning barchasi bilan birgalikda yaxlit o'rganilishi kerak.

Institutimiz tilshunslari tomonidan yaratilgan 6 jildli "O'zbek tilining izohli

lug'ati" ham mutaxassislar va keng jamoatchilik tomonidan juda iliq kutib olindi; ushbu lug'at 80 mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olgan. Hozirgi kunda lug'at yanada kengaytirilib, uning 10 jildligini tayyorlash ustidagi ishlar muntazam va jadal sur'atlarda kechmoqda.

Institutimizda nafaqat davlat tili, balki adabiyot va folklor yo'nalishlari bo'yicha ham ko'plab ishlar bajarilmoqda. Albatta, folklor va adabiyot yo'nalishlari ilgari ham juda chiroyli tarzda tadqiq etib kelingan. Institutimiz tarixida adabiyot ilmi va fani bilan bog'liq e'tiborga molik izlanishlarga misollar juda ko'p topiladi. Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" asari Markaziy Osiyo xalqlari orasida adabiyot nazariyasiga oid birinchi asar sifatida e'tirof qilinadi. O'z davrida qo'lma-qo'l bo'lib o'qilgan bu kitobning ahamiyati hozirgi kunda ham aslo kamaymagan.

Bugungi kunda adabiyot nazariyasiga daxldor izlanishlar va yangilanishlarni muttasil hamda muntazam ravishda tadqiq etishni davming o'zi talab qilmoqda. Demakki, adabiyot nazariyasining eski davrlar talabi bilan yuzaga kelgan yakragm talqinlarini yangilash, shuningdek, mumtoz adabiyotimizdagi yuksak o'lchovlarni zabt qilgan durdonalarga xos bo'lgan nodir qonuniyatlarni inkishof qilish bugungi kunimizdagi behad dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda institutimizning Adabiyot nazariyasi va adabiy aloqlar bo'limi professor B.To'xtiyev rahbarligida 2 jildan iborat "Milliy adabiyot nazariyasi" tadqiqotini yaratishga kirishgan. Unda nomidan ham anglashilib turganidek, umuman adabiyot nazariyasi emas, balki milliy adabiyot nazariyasi tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan. Bu, shubhasiz, o'zbek adabiyotshunosligida shakllangan yangicha yondashuvning natijasidir.



Institutning XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limida 2 jildli "Jadid adabiy ensiklopediyasi"ni yaratish ustidagi ishlar jadal sur'atlarda davom etmoqda. Bu o'ziga xos tadqiqot ham tamoman yangi bir ish bo'lib, u professor Ergash Ochilov rahbarligida bajarilmoqda.

Hozirgi kunda institutda sakkizta bo'lim faoliyat ko'rsatib turibdi. Yana bitta noyob obyekt — Folklor arxivi bo'limida 1920-1928-yillarda Hodi Zarif tomonidan to'plangan folklor materiallari saqlanmoqda. Ayni paytda ana shu nodir durdonalarni raqamlashtirish bilan bog'liq amaliy harakatlar ketyapti. Bu juda katta ma'naviy meros. O'zbekistonda 2012-yildan boshlab "O'zbek xalq ijodi durdonalari" nomli 100 jildli kitoblar to'plami nashr etilib kelinmoqda. Hozirga qadar ushbu kitobning 50 jildi chop etildi. Doston, terma va o'lanlar, umuman olganda, xalq og'zaki ijodiga daxldor nimaiki bo'lsa, barcha folklor asarlar jamlanib, yaxlit to'plam holatiga keltirilgan. Bu ishlar hali ham davom etmoqda. 2030-yilgacha qolgan 50 jildning ham nashrdan chiqishi ko'zda tutilgan.



— "Adabiyoti bo'lmaydigan millat yo'qilikka mahkum" degan edi zamondosh shoirlardan biri. Darhaqiqat, har qanday millatning shakllanishi, o'zini tanishi va ma'naviy yuksalishida adabiyotning o'rni beqiyos. Zero, hech narsa inson ruhiyatiga adabiyotchilik malham va najot bo'la olmaydi. Bugungi kunda millatning ma'naviy iqlimini yaratish yo'lidagi urinishlar va adabiyotning jamiyatga ta'siri xususida nima deya olasiz? Adabiyot bugun jamiyatni tarbiyalayaptimi yoki faqatgina o'rganilyaptimi?

— Adabiyot, hech shubhasiz, so'z san'atidir. Mashhur insonlardan biri "Adabiyotning boshi folkloridir" degan edi. Ha, adabiyot bu so'zdir va shu bilan birga, u folkloridir. U xalqning ertagi, dostoni va qo'shig'i demak. Millatning, umuman olganda, badiiy tafakkur dunyosining

bo'lgan yolqin bugungi bolalar adabiyotida unchalik sezilmayapti.

O'zbek adabiyotida juda go'zal asarlar yaratayotgan, shu davming chirsillab turgan muammolariga o'z munosabatini bildirayotgan va ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatib berayotgan nosirlar hamda shoirlar talaygina. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning asarlari bugungi nasrda davr muammolari va dardini ko'rsatib, ularni tuzatishga yo'nalish berayotgan o'ziga xos asarlar sirasiga kiradi. Uning so'nggi "Momaqaldiroq ostidagi sayr" romanida jamiyatdagi eng dolzarb masalalar bir necha qadramonning hayoti misolida ochib berilgan. Badiiy til nuqtayi nazaridan Erkin A'zam bugungi o'zbek nosirchiligida yuksak darajalarni zabt etgan mohir yozuvchidir. Adiblarimiz chindan ham e'tiborga loyiq asarlar bitmoqda. Modomiki, bunday asarlar bor ekan, adabiyot hamisha yashaydi va o'zini go'zal shakllarda namoyon qilaveradi.

— Institutda qaysi yangi nazariy yo'nalishlar rivojlanmoqda? Raqamli lingvistik va sun'iy intellekt qanday yo'lga qo'yilgan?

— Davlatimiz rahbarining 2025-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash oldimiza turgan eng muhim ishlardan biridir. Unga ko'ra, qo'lyozmalar hamda adabiyot va san'at asarlari raqamlashtirilmoqda. Shu maqsadda bir necha elektron platforma yaratildi. Jumladan, institut olimlari tomonidan "Jahon navoiyshunosligi" elektron platformasi ishlab chiqildi. Ayni paytda mazkur platforma dunyoning 8 ta tilida faoliyat yuritmoqda. Noyob obyekt sanalgan Folklor arxividagi 3000 ga yaqin birlikning raqamlashtirilayotgani esa mavjud materiallardan keng miqyosda foydalanish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, 2020-yilda institutimizda Sotsiologiya bo'limi ochildi. Sotsio — jamiyat, lingvistik esa til, ya'ni tilshunoslik deganidir. Sotsiologiya bevosita jamiyat va til masalalarini o'rganadi. Ushbu bo'lim bugungi jamiyatda davlat tili qay tarzda yashashi kerakligini ilmiy jihatdan tadqiq qiladigan tilshunoslik yo'nalishidagi jiddiy bo'limlardan biridir. Sotsiologiyatning mohiyati, uning boshqa tilli mamlakatlarda qay tarzda rivojlanayotgani hamda bizda bu yo'nalishning qanday istiqbolga ega ekani haqida mazkur bo'lim tomonidan maxsus monografiya e'lon qilindi. O'tgan yili bu asar tilshunoslik bo'yicha o'tkazilgan eng yaxshi ilmiy asarlar tanlovida birinchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, o'tgan yili "Sotsiologiya terminlarining izohli lug'ati" ham nashr qilindi.

Sun'iy intellekt yordamida til tarkibini tadqiq etishga xizmat qiluvchi, tilning

nafaqat mazmunini, balki mental va psixik kabi xususiyatlarini ham ochib berishga u yoki bu tarzda yordam beradigan dasturlarni ishlab chiqish galdagi asosiy vazifalarimizdan sanaladi.

— Xalqaro hamkorlik samarasi nimalarda ko'zga tashlanmoqda? O'zbek adabiyotshunos olimlarining bugungi kunda dunyo ilm-faniga qo'shayotgan hissasi nimalardan iborat? Shuningdek, jahon ilmiy maydonida milliy tilshunosligimiz qay darajada namoyon bo'lyapti?

— O'zbek tilshunosligi va o'zbek adabiyotshunosligining dunyo filologiyasida o'ziga xos mustahkam o'rni bor. Azaldan ustozlarimiz tashqi mamlakatlar bilan u yoki bu tarzda muntazam munosabatda bo'lib kelgan. Xorijlik hamkasblarimiz ham yurtimizga kelib, o'zbek dostonlari, ertaklari, badiiy asarlari va, umuman, o'zbek tili ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Bundan 10-15 yillar muqaddam janubiy koreyalik Ingyong O xonim yurtimizga tez-tez kelib turardi. U bugungi kunda o'z yurtida fan doktori, professor va katta bir institutda rahbar sifatida faoliyat ko'rsatyapti. Aynan shu xonim "Alpomish" va "Jumong" dostonlari o'rtasidagi yaqinlik va farqlar mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlab ketdi. Qo'shni Qirg'iziston fuqarolari Barmo Is'hoqova va Xosiyat Bekmirzayeva esa institutning mustaqil tadqiqotchilari sifatida o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalari bo'lmish Bobur Mirzo va Jahon otin Uvaysiy ijodi yuzasidan ilmiy izlanishlar qildi. Ibra institutda faoliyat yuritayotgan o'zbek adabiyoti ixtisosligidagi ilmiy kengashda o'z dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

2017-yilning may oyida Xitoyning Lanchjou universitetida bugungi o'zbek tilshunosligidagi yangiliklar va yangi yo'nalishlar borasida bir hafta mobaynida ma'ruza o'qib kelganman. O'z navbatida xorijlik hamkasblarimiz ham turli ilmiy anjumanlar doirasida yurtimizga tez-tez tashrif buyurib turadi.

Institut direktorining ilm-fan bo'yicha o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor Maqsd Asadovning "Navoiy ijodida soqiyonoma" ("Sakinameh in Navoi's work") nomli monografiyasi ingliz tilida "AMAZON" (Amerika, Sietl) nashriyotida chop etildi.

Kitobda o'zbek mumtoz adabiyotida soqiyonoma janrining taraqqiyoti, xususan, buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidan o'rin olgan 32 band, 500 misraga yaqin soqiyonomaning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini atroflicha yoritib berilgan. Soqiyonoma XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy, madaniy hamda adabiy hayotni, qolaversa, Alisher Navoiyning hayoti, faoliyati, tarjimai holi, yaqinlari, ustozlari, do'stu birodarlari, Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini, shuningdek, ulug' shoirmning temuriy shahzodalarga bo'lgan munosabati xususida bahs yurituvchi o'ziga xos manzumadir. Monografiya muallifi adabiy matn mazmuniga tayangan holda Alisher Navoiy fenomenining yorqin jihatlarni ilmiy asosda ochib bergan va teran tadqiq qilgan.

Mazkur kitob Prezidentimizning 2025-yil 7-fevraldagi "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqyosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yo'lida tashlangan qadamlardan biridir. Ushbu monografiya buyuk vatandoshimizning ijodiy merosini xorijda ham keng targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning yorqin namunasini bo'la oladi.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Risolat MADIYEVA
suhbatlashdi.**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati" DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-346.

31346 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 20:55